

**AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB SODIR ETILAYOTGAN FIRIBGARLIK JINOYATINI FOSH ETISH, SOHAGA OID MUOMMOLAR VA YECHIMLARI**

**Muxamatqulov Shohruhbek Erkin O'g'li**

IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi –  
shohruhbekmuhammatqulov@gmail.com

**annotatsiya:** Ushbu maqolada axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan firibgarlik jinoyatining bugungi holati, tergov va tergovga qadar tekshiriv jarayonida uchrayotgan muommolar, yechimlari hamda Toshkent shahri va hududlar kesimida jinoyatlarning turlari va oldini olish chora-tadbirlari haqida so`z boradi.

**kalit so`zlar:** Kibermakon, kibermalaka, internet, firibgarlar, fishing, jinoyatning turlari, oldini olish chora-tadbirlari, tezkor tadbirlar

**аннотация:** В данной статье рассматривается современное состояние мошенничества, совершаемого с использованием информационных технологий, проблемы, пути решения, имеющие место в процессе расследования и следствия, а также меры по предупреждению и виды преступлений в городе и краях города Ташкента.

**ключевые слова:** Киберпреступность, Киберпреступность, Интернет, Мошенники, Фишинг, Виды преступлений, Меры профилактики, Неотложные действия

**annotation:** This article discusses the current state of fraud committed using information technology, the problems, solutions that are taking place in the investigation and investigation process, and the types and prevention of crimes in The City and Regions of Tashkent.

**keywords:** Cybercrime, Cybercrime, Internet, Scammers, Phishing, Types of Crime, Prevention Measures, Urgent Activities

Firibgarlik- bu o`zganing mulkini yoki mulkka bo`lgan huquqini aldash yoki ishonchni suiste`mol qilish yo`li bilan qo`lga kiritishdir.

Mamlakatimizda keyingi vaqtarda firibgarlik jinoyatlari soni ko`payib borayotganligi tashvishlanarli hol hisoblanadi. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanib borayotganligi, Internet jahon axborot tarmog`idan hamda elektron to`lov tizimlaridan foydalanuvchilar soni ko`payib borayotganligi o`z navbatida ushbu sohalarda firibgarlik jinoyatlari soni oshishiga olib kelmoqda.

O`zbekiston Respublikasi oliy majlisi Senatining 2022-yil 28-aprelda bo`lib o`tgan yigirma beshinchi yalpi majlisida O`zbekiston respublikasida adliya vazirining 2021-yilda huquqiy targ`ibot va ma`rifatning holati haqidagi axboroti eshitildi. Unda Adliya vaziri Ruslanbek Davletovning aytishicha,, bugungi kunda axoli hayotida qanday huquqiy munosabatlarda muommolar bo`layotganligi taxlil qilib borish, shunga qarata va manzilli ishlash lozim. “Masalan, firibgarlik, kiberfiribgarlik hozir avj olyapti. Yangi moliyaviy piramidalar opaydo bo`lyapti. Fuqarolarimiz qimor va tavakkalchilikka asoslangan o`yinlar uchun jinoiy javobgarlik borligini bila turib bu yo`ldan qaytmayapti.”

Xozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda respublikamizda olib borilayotgan islohotlar zamirida mamlakatimizning iqtisodiyoti kundan-kunga yuksalib aholining davlat organlariga bo`lgan ishonchi ortib bormoqda. Kiberfiribgarlik yoki internet firibgarligi deb nom olgan jinoyatlar ko`lamikengayib bormoqda. Ularga qarshi kurashish bugungi kunda kadrlar salohiyati, ularning bilimi va ko`nikmalari darajasiga alohida e`tibor qaratilmoqda.

Xayotda ba`zi odamlar tez va oson boyib ketishni orzu qiladi. Firibgarlar esa, aynan shunday kishilarning ishonuvchanligi va soddaligidan ustomonlik bilan foydalanadi. Ayniqsa, xozirgi paytda internet firibgarligi keng tarqalmoqda.

Ma`lumot o`rinida aytib o`tish kerakki, internet firibgarlik – internet orqali odamlarga tegishli pul, qimmatbaho buyum yoki meros kabi shaxsiy mulkni o`g`irlash, o`marish, talan-taroj qilish maqsadida tashkillashtiruvchi aloqador turlaridan biri hisoblanadi. Internet firibgarligi yagona, o`ziga xos jinoyat bo`lmasa-da, u kibermakonda sodir etiladigan bir qator noqonuniy harakatlarni o`z ichiga oladi.

Firibgarlikning ushbu turi o`g`rilik jinoyatidan tubdan faqr qiladi. Chunki bunday holatda jabrlanuvchi firibgarlarga ongli ravishda shaxsiy ma`lumoti, pul yoki mol-mulkidan foydalanish ixtiyorini topshiradi.

Internet firibgarlari odatda, avans to`lovi, biznes manfaatlar, karding, kredit kartasini berish, elektron pochta yordamidaxizmat ko`rsatish, ishga joylashtirish, foreks, pochta va o`tkazmalar, onlayn dorixona, kasallar va ishqiy munosabatlар singari “xizmat”larni taklif etgan holda odamlarni chuv tushirishadi.

Dunto miqyosida mo`may boylik ilinjida odamlarni aldab, ularning mol-mulklarini o`zlashtirib olish maqsadida turli onlayn dasturlar va loyihalar ishlab chiqilgan. Xozirda ularning yangidan-yangi turlari paydo bvo`lmoqda. Afsuski, ba`zilar mashaqqatli mehnat bilan topgan pulini osonlik bilan

ko`paytirish maqsadida firibgarlarning tuzog`iga tushib qolayotganligi g`oyatda tashvishlanarli. Shu o`rinda jinoyat huquqi nazariyasida kiberfiribgarlik tushunchasi to`g`risida turli xil fikrlar mavjud. Xususan, V.K.Barchukovning fikricha, kiberfiribgarlik kompyuter firibgarligi bo`lib, u ichki ma`lumotlardan foydalangan holda firibgarlik va ishonchni suiiste`mol qilish orqali o`zganing mulkiga tajovuz qilishdir. D.A.Zikovaning fikricha, kiberfiribagralik jinoyati kompyuter texnologiyalari yordamida firibgarlik, ishonchni suiiste`mol qilish orqali o`zga shaxsning pul mablag`larine o`zlashtirish, uning mulkiga zarar keltirish va ushbu mulkka ega bo`lish hisoblanadi. M.A.Efremova esa, "Kiberfiribgarlik" tushunchasini "kompyuter ma`lumoti orqali firibgarlik qilish" tushunchasi bilan bir xil ekanligini va ularning sinonim so`zlar hisoblanishini ta`kidlaydilar. Yuqorida omillarning fikrlari to`g`ri, haqiqattan ham kiberfiribgarlik axborot texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi va o`zga shaxsning mulkiga, ushbu shaxslarning ishonchiga kirish yoki ishonchini suiiste`mol qilish yo`li bilan ega bo`lishga qaratiladi. Biroq, milliy qonunchiligidan kompyuter texnologiyasi tushunchasi va uning mexanizmi belgilab berilmagan, faqatgina elektron hisoblash mashinasi bilan bog`liq qoidalar mavjud ekanligi bilan ifodalanadi. Shuningdek, mazkur tushuncha tor tushuncha bo`lib, uni axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari o`z ichiga qamrab oladi.

XXI asr axborot texnologiyalari davrida o`zining keng qamrovligi bilan ajralib turuvchi va yildan yilga ko`payib hozirgi kun asosiy mavzularidan biriga aylanib borayotgan kiberfiribgarlik jinoyatlari jamiyatga juda katta xavf keltirib chiqarmoqda. Birgina jinoyat ishlari bo`yicha sudlarning 2019-yil faoliyatiga oid statistik ma`lumotlarga Nazar tashlaydigan bo`lsak, sodir etilgan firibgarlik jinoyati 6321 tani tashkil etgan bo`lsa, 2020-yil davomida esa 10496 tani tashkil qilgan. Qariyb 42% ga o`sganligini ko`rishimiz mumkin. Ushbu jinoyatlarning aksariyat qismi kiberfiribgarlikni tashkil etmoqda. E`tiborlisi shundaki, mazkur jinoyatlarning sodir etish usuli yangicha ko`rinishda sodir etilmoqda. Xozirgi kunda firibgarlikning zamonaviy ko`rinishidan biri bo`lgan kiberfiribgarlik yoki internet firibgarligi bo`lib qolmoqda. Umuman olganda ushbu jinoyatlarning barcha ko`rinishlariga qarshi kurashishda ichki ishlar organlari salohiyati, bilimli kadrlarni tayyorlashni talab qilmoqda. Bu kabi firibgarlik holatlari bank kartasi egasining xabarisiz uning karta hisobvarog`idan pul mablag`lari yechib olish, parol va PIN-kodlarni o`g`irlash va boshqa noqonuniy faoliyati turlari bilan bog`liq holatlarda ham amalga oshirmoqda. Shuningdek, firibgarlik jinoyatining jabrlanuvchsi bo`lib qolishdan saqlanish uchun quyidagilar to`g`risida ogoh bo`lish zarur.

Xozirgi kunda “telefon firibgarlari” o`ylash uchun vaqt qoldirmay, turli gaplar bilan chalg`itib, karta ma`lumotlarini ayyorlik bilan qo`lga kiritadiyoki yolg`onlariga ishontirib, pul mablag`lari ularga o`z xoxishingiz bilan o`tkazib berishga undaydi. Shu sababli firibgarlarning turli bohonalarini bilan bank kartangiz ma`lumotlarini (karta raq1am, PIN kod, SMS-kod va boshqa shaxsiy ma`lumotlarni ) bilib olishga urinishlariga javob bermaslik choralarini ko`rish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Firibgar fuqarolar “tuzog`i” ga tushib qolishning oldini olish va mablag`larine xavfsizligini ta`minlashg maqsadida quyidagilarga e`tibor qaratish maqsadga muvofiq bo`ladi: avvalo, o`zini bank, huquqni muhofaza qilish idorasi yoki biron bir savdo tashkiloti xodimi deb tanishtirgan notanish fuqarolardan qo`ng`iroq bo`lganda, ularning so`zlariga yoki ko`rsatmalariga amal qilishga shoshilmasdan va shaxsiy ma`lumotlarni oshkor qilmaslik lozim. Eng maquli, ular bilan suhbatni tugatish va qo`ng`iroq qiluvchilar aytganb tashkilot bilan qayta bog`lanib, ular tomonidan berilgan ma`lumotlarning to`g`ri yoki noto`griligiga aniqlik kiritish choralarini ko`rish maqsadg amuvofiq.

Shuningdek, fuqarolar o`zlariga tegishli bo`lgan bank plastic kartasi ma`lumotlarini ijtimoiy tarmoqlarda e`lon qilmasligi lozim. Aynan, maxfiy ma`lumotlarni kiritishni, ro`yhatdan o`tkazish kerak bo`lgan saytlarda <https://> prefaksi mavjudligini tekshirib ko`rishlari tavsiya etiladi. Agar tashkilotlarning sayti yoki sahifasi haqiqiyligiga shubha uyg`onsa, ushbu tashkilot bilan bog`lanish va ma`lumotlarga aniqlik kiritish lozim. Imzolanadigan barcha hujjatlarni diqqat bilan o`qish, ko`rsatilgan ma`lumotlarning to`g`riligiga qayta tekshirib ko`rish maqsadga muvofiqdır.

Global internet tarmog`i rivojlanib brogan sari uning keng imkoniyatlari odamlar uchun nafaqat beqiyos qulayliklar yaratmoqda, balki xavf o`choqlaridan biriga aylanmoqda.

Global internet tarmo`gi rivojlanib brogan sari uning keng imkoniyatlari odamlar uchun nafaqat beqiyos qulaylik yaratmoqda, balki xavf o`choqlaridan beriga aylanmoqda. Bu qanday xavf? Bu – global tarmoqda avj olayotgan jinoyatchilik olamidir.

Ilgari electron vositalar orqali amalga oshiriladigan noqonuniy harakatlar, ya`ni kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish tizimi yo`lga qo`yilgan. Biroq, bugungi kunda mutaxassislar internetdagi jinoyatlarning turi va ko`lami nafaqat kengaygani, balki chuqurlashib borayotganini aytmoqda. Bunga oddiy odamlar aqli bovar qilmaydigan “Internet ichidagi internet” sifatida qaralmoqda.

O`zganing mulkiga bo`lgan huquqni egallahsga qaratilgan firibgarlik aybdorda o`zining mulkiga egalik qilish yoki tasarruf etish uchun yuridik

jihatdan tasdiqlangan imkoniyat paydo bo`lgan paytdan boshlab (masalan, ko`chmas mulkka nisbatan mulk huquqi yoki qonunga muvofiq ro`yhatga olinishi shart bo`lgan boshqa mulkka nisbatan huquq ro`yhatga olingan paytdan; shartnomal tuzilgan vaqtidan; mulkka nisbatan shaxsning huquqi tan olingan sud qarori kuchga kirgan kundan; vakolatli davlat organi aybdorda yoki boshqa shaxslarda mulkka egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish uchun asoslar mavjudligi to`g`risida qaror qabul qilingan kundan) tugallangan hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T-2024 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. T-2024 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi. T-2024 yil
4. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksi. T-2024 yil.
5. O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to`g`risida"gi qonuni
6. "Kiberxavfsizlik to`g`risida"gi qonun
7. "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to`g`risida"gi qonun.
8. "Axborotlashtirish to`g`risida"gi qonun
9. Ganiyev S.K, Karimov M.M., Tauiyee KA. Axborot xavfsizligi. Axborot-kommunikatsion tizimlari xavfsizligi. - T., 2008.
10. Umarxo'jayev Asadbek Shuxratjon o'g'li. (2023). korxona va tashkilotlarda axborot xavfsizligini ta'minlashda axborot xavfsizligi siyosatining tutgan o`rnii . образование наука и инновационные идеи в мире, 20(10), 62–67. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/6120>